



NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Xudanova Sh.N.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Tayanch soʻzlar: nemis tili, talabalar, kasbiy pedagogik, kompetentlik, raqamli texnologiyalar, rivojlantirish.

Ключевые слова: немецкий язык, студенты, профессиональная педагогика, компетентность, цифровые технологии, развитие.

Key words: german language, students, professional pedagogy, competence, digital technologies, development.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida pedagogik ta'lim sohasini yuqori samaradorlikka erishtirish, keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi, xalqaro tajribalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid fikrlar yoritilgan. Shuningdek, nemis tili darslarida talabalar kasbiy pedagogik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga oid olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi to'g'risida fikrlar keltirilgan. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali qator imkoniyatlarga ega bo'lish borasida qaydlar ham aks ettirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье освещены идеи, связанные с достижением высокой эффективности в сфере педагогического образования в условиях Нового Узбекистана, реализацией комплексных реформ, внедрением международного опыта и цифровых технологий. Также имеются мнения об актуальности проводимых исследований по развитию профессиональной педагогической компетентности у студентов, изучающих немецкий язык, на основе цифровых технологий. Также есть замечания о возможностях, которые дает использование цифровых технологий в образовании.

SUMMARY:

The article highlights ideas related to achieving high efficiency in the field of pedagogical education in the context of New Uzbekistan, implementing comprehensive reforms, introducing international experience and digital technologies. Also, there are opinions about the relevance of the research on the development of professional pedagogical competence of students based on digital technologies in german language classes. There are also notes on the opportunities afforded by the use of digital technologies in education.



Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb yetmoqda. Pedagogika sohasining taraqqiyoti aynan, ta'lim vakillari yoki mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi hamda shu yo'nalishdagi rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Shu bois ham Vatanimizning ertangi kuni va uning mustahkam poydevorini yaratuvchisi bo'lgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy hayotimizning barcha yo'nalishlaridagi tarbiyaviy jihatlarni yoshlarning ma'naviyatiga singdirib borish va Yangi O'zbekistonning ertangi kun egalari bo'lmish yoshlarning taqdiri bevosita bugungi zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi bilan bog'liq. Xususan, milliy ta'lim tizimini tubdan yangilashning muqobil yechimlarini topish va amaliy faoliyatga joriy etishda talabalar kasbiy kompetetligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish pedagogika sohasining tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolaridan sanaladi.

Ijtimoiy jamiyatimizning ehtiyojlaridan kelib chiqib, davr talablariga binoan ta'limning izchilligini ta'minlash, sohaga innovatsion texnologiyalar hamda milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni qo'llash orqali talaba-yoshlarimizda teran tafakkur, ilmiy mushohadalarga chorlovchi g'oyalar asosida mustaqil fikr va keng dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim tizimida o'zaro aloqadorlik, integratsiyani ta'minlash, barcha sohalarda nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadigan jarayonlarga yanada kengroq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Mustahkam va sifatli zamonaviy ta'lim uchun barqaror iqtisodiy o'sish, fan, texnika va texnologiyalarning rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini ta'minlash har bir davrning muhim garovi bo'lib kelgan. Shu bois ham mamlakatimizda ta'lim sifatini rivojlantirish va unga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sohani takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish" [1], zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, zamonaviy axborot-



kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish borasidagi qator fikrlari O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilgan. Yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ta'limni boshqarish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Talabalar kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi bilan bir vaqtda IT-sohasi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni ham rivojlantirishga ehtiyojning mavjudligi, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ommalashtirish zarur ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" [2] PQ-4996-sonli qarori ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, ta'lim sohasida ham mazkur texnologiyalarini qo'llashga alohida ahamiyat qaratilgan. Yangi texnologiyalar afzalliklari shundaki, ko'plab mamlakatlar turli sohalarida sun'iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. Xorijda sun'iy intellekt texnologiyasini ta'lim tizimida qo'llayotgan mamlakatlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan kompyuterlar ma'lumotlarini prognoz va tahlil qilish uchun sarf-xarajatlarni kamaytirishda ham katta imkoniyatga ega. Bunday ma'lumotlardan foydalanib ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlarini kuzatib borish mumkin. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan asrda eng muhim omil ma'lumotlar hisoblanadi. Ma'lumotlar baholash, tahlil qilish maqsadlarida foydalanish uchun xizmat qiladi.

Davrning globallashuv jarayonida, kasbiy faoliyatimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan bugungi kunda raqamli texnologiyalar har bir soha vakillarining kundalik ish faoliyatiga asta sekin kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanmoqda. Mamlkatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar yo'nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yo'lga qo'yilganligi ham raqamli texnologiyalarning nafaqat pedagogika balki, iqtisodiyot, siyosat, qishloq ho'jaligi, tibbiyot kabi sohalarda ham uning o'rnini katta ahamiyatga ega. Shu bois ham mazkur nemis tili yo'nalishi talabalarida kasbiy pedagogik kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga oid olib borilayotgan tadqiqot dolzarbdir.



Nemis tili yo'nalishi talabalarida kasbiy pedagogik kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va undan ta'lim tizimida foydalanish hamda uning ommalashuv sabablari shundaki, ta'lim jarayonini amalga oshirishda qulay tomonlar mavjud. Shuning bilan bo'lajak o'qituvchilar o'zlari istagan holda va xohlagan vaqtda o'z ustida ishlash imkoniga ega bo'ladi.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali qator imkoniyatlar mavjud. Ular:

- pedagog kadrlar yetishmaydigan chekka hududlarda ham onlayn yoki masofaviy shaklda ta'lim olishlari;
- Internet tarmog'idan o'zlari istagan axborotlarni olish, izlash, tarqatish va undan foydalanishlari;
- tizimda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ta'lim samaradorligini oshirish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning shunchaki, fanlarni o'zlashtirishlari emas, balki ularning bilim darajalari oshayotganligi va muammoli vaziyatlarga tayyorligi hamda tanqidiy tafakkurning shakllanganligi, mustaqil o'z ustida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish kabilarga.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarining jadal kirib borayotganligini qayd etish joiz. Uning bosh omili esa darslar sifatini oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlash sanaladi. Mazkur omil talabalarga nemis tilini o'qitish jarayonida turli vositalar va raqamli texnologiyalarni qo'llashning yangi strategik loyihalarini ishlab chiqish hamda sohaga joriy etishning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatini beradi" [3], kabi ta'kidlari mamlakatimizda faqat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burulish yasash, balki raqamli texnologiyalarni ijtimoiy jamiyatimizning barcha sohalariga, jumladan, pedagogika sohasi ta'lim tizimiga ham joriy etish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bevosita raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etar ekan, uning uchun bunday texnologiyalar borasida mutaxassis kadrlardan kuchli bilim va tajribalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Pedagogika sohasiga zarur bo'lgan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish,

biz ko'zlayotgan maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishning zarur talabi bo'lib xizmat qiladi.

Nemis tili yo'nalishi talabalarida kasbiy pedagogik kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni yanada takomillashtirishda bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur. Ular:

- Internet tezligini yanada oshirish va aloqa sifatini yuqori darajaga ko'tarish hamda Internet ijtimoiy tarmog'i tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori darajada ta'minlanganligi [4];
- raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalari hamda IT-sohasi o'rtasida mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirib borishga qaratilgan faoliyatni yanada takomillashtiruvchi shart-sharoitlarni yaratish;
- raqamli texnologiyalarning ahamiyati va foydali jihatlari hamda ulardan foydalanish tartiblarini mujassamlashtiruvchi mavzularga oid ma'ruza yoki seminar darslari uchun mo'ljallangan innovatsion-multimediali taqdimotlarni yaratishga qaratilgan kurslarni muntazam tashkil etish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish lozim.

Nemis tili yo'nalishi talabalarida kasbiy pedagogik kompetentlikni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantiruvchi vazifalar

№	Vazifalar	Mazmuni
1.	1-vazifa	<i>Internet tezligini yanada oshirish va aloqa sifatini yuqori darajaga ko'tarish hamda Internet ijtimoiy tarmog'i tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni yuqori darajada ta'minlash.</i>
2.	2-vazifa	<i>Raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalari hamda IT-sohasi o'rtasida mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirib borishga qaratilgan faoliyatni yanada takomillashtiruvchi shart-sharoitlarni yaratish.</i>
3.	3-vazifa	<i>Raqamli texnologiyalarning ahamiyati va foydali jihatlari hamda ulardan foydalanish tartiblarini mujassamlashtiruvchi mavzularga oid ma'ruza yoki seminar darslari uchun mo'ljallangan innovatsion-multimediali taqdimotlarni yaratishga qaratilgan kurslarni muntazam tashkil etish.</i>

Mazkur pedagogik talablar negizida bo'lajak pedagoglarni nemis tili darslarida kasbiy pedagogik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishi uchun ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ulardan foydalanish va amaliyotda qo'llash jarayonlari amalga oshirilsa, bugungi kun talablari darajasida bilim berishga erishishimiz mumkin.



Xulosa, ta'kidlash joizki, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, nemis tilini o'qitishda bo'lajak pedagoglarning kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini taminlashda, ikkinchidan, dars jarayonlariga oid turli illyustratsiya, video roliklar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlashda, uchinchidan, multimedia mahsulotlari, kompiyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo'llashga oid bilim, ko'nikma va malakalarining oshirishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta'lim jarayonlarida quyidagilarga erishish mumkin:

- bo'lajak pedagoglarga nemis tilini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimi yaratiladi;
- nemis tili darslarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish natijasida talabalar kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirish darajasining samaradorligi ortadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.01.2020. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
4. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma / Murtozayeva M.M. – T.: O'zDJTU, 2024. – 450 b.